

ALEKSANDR BYORNS HISOBOTLARIDA XIVA ROSSIYA ZIDIYATLARI

Adashaliyev Azizbek Zafarjon o'g'li
Namangan davlat texnika universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning 30–40-yillarida Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi keskinlik va mojarolar britaniyalik diplomat va razvedkachisi Aleksandr Byornsning 1837-yilda Britaniya Hindistoni ma'muriyatiga yuborgan hisoboti asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Byorns, Xiva xonligi, Rossiya imperiyasi, Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi, rus asirlari, harbiy istehkom, savdo siyosati, diplomatik munosabatlar, tarixiy manbalar.

CONFLICTS BETWEEN KHIVA AND RUSSIA IN THE ACCOUNTS OF ALEXANDER BURNES

Adashaliyev Azizbek Zafarjon o'g'li
Teacher, Department of Social Sciences
Namangan State Technical University

Аннотация. В статье анализируются напряженные отношения и конфликты между Хивинским ханством и Российской империей в 1830–1840-х годах на основе доклада, отправленного британским дипломатом и разведчиком Александром Бернсом британской индийской администрации в 1837 году.

Ключевые слова: Александр Бёрнс, Хивинское ханство, Российская империя, Центральная Азия, Каспийское море, русские пленники, военные укрепления, торговая политика, дипломатические отношения, исторические источники.

XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar Markaziy Osiyoda geosiyosiy muvozanatning muhim elementi bo'lgan. Aleksandr Byornsning kuzatuvlari ushbu jarayonlarning bevosita

guvohlik qilgan manbasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Maqolada Byorns bergan ma'lumotlar boshqa tarixiy manbalar bilan taqqoslanib, ularning ilmiy ishonchliligi aniqlanadi.

Aleksandr Byorns 1837-yil 20-oktabrda "Rossiyaning Markaziy Osiyodagi, ayniqsa, Xiva va Hiratga nisbatan nuqtai nazarlari va istiqbollari" nomli Britaniyaning Kalkutta shahridagi Hindiston hukumati kotibi, Fort-Uillyam, janob V. X. Maknaxtenga yuborgan hisobotining 5- xatboshida quydagilarni qayd etadi:

1835-yilda Rossiya hukumati, xivaliklarning chegarani buzish va qilayotgan "tajovuzlariga" chek qo'ya olmagan uchun, ilgari qo'llagan choralardan ham qattiqroq choralar ko'rishga qaror qildi. Ular Kaspiy dengizining sharqiy sohilida, Astraxon qarshisidagi Mang'ishloq yaqinidagi bir joyni egallab, qo'ltiqdagi qo'nish joyiga qarovchi bir qal'a qurdilar va hozirgacha uni egallab turibdilar. Taxmin qilish mumkinki, bu qadam Xiva hukmdori Olloquli xonni juda g'azablantirdi, u bunga qattiq norozilik bildirdi; bu yerda muvaffaqiyatga erisha olmagan, avvalgidan ham ko'proq talonchilar yuborib, qasos olish bilan tahdid qildi. U, shuningdek, Buxoro amiri va Qo'qon xoniga murojaat qilib, o'z mamlakati bo'ylab sodir etilayotgan adolatsiz bosqin haqida shikoyat qildi va agar o'z vaqtida qarshilik ko'rsatilmasa, ertangi kuni bu dushman ularning o'zlariga ham zarar yetkazishi mumkinligini aytib, yordam so'radi. Ular bu talabning adolatlilikini tan olishdi, lekin hech qanday yordam yubormadilar.[1]

Yuqoridagi ma'lumotni boshqa tarixiy manbalarda ham uchratishimiz mumkin. Xususan 1819-yilda rus hukumati tomonida Xivaga yuborilgan armiya zobiti N.Muravyov ham «Путешествие в Хиву» asarida Kaspiy bo'yidagi rus harbiy punktlarining Xiva tomonidan "zararli harakat" sifatida ko'rilganini tasdiqlaydi. [2]

Herman Vamberi ham "Travels in Central Asia" asarida Xiva Kaspiy dengiziga yaqin joyda mustahkam rus istehkomlaridan doimiy ravishda xavotirlanganini yozadi. [3]

Shuningdek mahalliy tarixchilardan Muhammad Yusufbek Bobojonbek o'g'li Bayoniy Xiva xonlari Rossiya bilan chegaradagi nizolarni "o'z

mustaqilligiga tahdid” sifatida ko‘rganligi hamda Rossiyaning qo‘shni davlatlar ichki ishlariga aralashuvini keskin tanqid qiladi. [4]

Yuqoridagi manbalarning barchasida Rossiyaning Kaspiy bo‘yida istehkom qurishi Xiva–Rossiya ziddiyatining asosiy sabablaridan biri sifatida tasvirlangan.

Hisobotning 6-xatboshida Xivadagi rus asirlari haqida yozadi: Ruslar Kaspiyning sharqiy sohilida o‘zlarini mustahkamlaganlaridan so‘ng, Astraxondan to‘rtta kichik kemada bir guruh odam, mish-mishlarga ko‘ra, ov qilish (shikar) uchun, lekin ehtimol yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatni aniqlash maqsadida kelishdi. Ularning harakatlari haqidagi ma’lumot Urganch xoniga yetgach, u talonchilik (Allaman) ekspeditsiyasini yuborib, ularning barchasini (taxminan 120 kishi, ulardan ikkitasi yuqori martabali kishilar edi) asir oldi. Hammasi Urganchga olib kelindi; so‘z etilayotgan ikkita shaxs xon tomonidan ushlab qolindi, qolganlari qul sifatida sotildi; ulardan ba’zilari Buxoro va Qo‘qonga yuborilgan va men Samarqand atrofidan bir kishini uchratganman, u ularning bir guruhini ayrim otlar evaziga almashganligini bilardi! Imperator bunday harakatlarga qarshi darhol norozilik bildirdi va asirlarni qaytarib berishni talab qildi, ammo xon ularni topshirishdan bosh tortdi va ruslar uning mamlakati hududiga zo‘ravonlik bilan qal’a qurganliklarini, shu sababli u o‘z tahdidiga binoan qasos olib, ushbu guruhni ushlab qolganini aytdi. [5]

XVIII asr oxiri – XIX asr o‘rtalariga tegishli, rasmiy hujjatlar, diplomatik yozishmalar, chegaraviy hisobotlar, harbiy ekspeditsiya ma’lumotlari to‘plami bo‘lgan, Orenburg chegarasi ekspeditsiyasi ish faoliyati davomida tuzilgan rasmiy harbiy-ma’muriy hisobotlar, turli yillarda bir nechta rus harbiy xizmatchilari, elchilar va chegaradosh idora amaldorlari tomonidan yozilgan “Записки Оренбургской экспедиции” arxiv to‘plamida ham 1836–1839-yillarda Xiva tomonidan 300 dan ortiq rus fuqarolarining asirga olinishi qayd etilgan. [6]

Ogahiy “Zubdat ut-tavorix” asarida bu voqealarni Xiva manfaatlariga zarar yetkazgan tashqi siyosiy bosimlar bilan bog‘laydi. Xon Olloquli asirlarni Rossiya bilan muzokara vositasi sifatida ko‘rganini yozadi.[7]

Yuqoridagi manbalardan ko‘rinib turibdiki, rus asirlari bir qancha muddat XIVada saqlangan va qul bozorlarida sotilgan, rus asirlaridan esa Xiva hukumati o‘z manfaatlari yo‘lida foydlangan.

Ushbu hisobotning 7-xatboshida esa yarmakarlar va savdo hamkorligi haqida yozadi. Vaziyat shu holatda davom etdi, to Imperator Nikolay o‘tgan yili iyul oyida shaxsan Nijniy Novgoroddagi yirik yarmarkaga tashrif buyurmaguncha. Uning birinchi harakatlaridan biri Markaziy Osiyo savdogarlarining hammasini o‘z huzuriga chaqirib, o‘zlarining manfaatlarini qanday rag‘batlantirish mumkinligi haqida fikr bildirishlarini so‘rash edi. O‘ta og‘ir bojlar masalasi ko‘tarilgach, u tergov chog‘ida darhol bojlarni sezilarli darajada (ba‘zilarning aytishicha, butun miqdorning to‘rtidan bir qadar) qisqartirishni buyurdi. U bu haqda Buxoro amiri va Qo‘qon xoniga sovg‘alar va do‘stona xatlar yuborib xabar berdi. Bu paytda Imperator Buxoro va Kobuldan kelgan savdogarlarni juda muloyimlik va iltifot bilan kutib oldi, ularning tashabbuskorligi uchun ularni maqtadi va yarmarkada ular hisobiga imtiyozlar berilganini aytdi. Bunday imtiyozlarning berilganligi haqidagi fakt, men ko‘rayotganimdek, Frankfurter Gazetida ham tilga olingan. Biroq, Urganchdan kelgan savdogarlarga butunlay boshqacha munosabat ko‘rsatildi. Hazratlari ularning hammasini (jami 46 kishi, ulardan ba‘zilari ancha boy va Rossiyada uzoq vaqt savdo qilgan kishilar) ushlab qolish va ularning molidunyoqlarini hukumat amaldorlari tomonidan musodara qilishni buyurdilar. Savdogarlar bunday harakatlarga norozilik bildirdilar va ularning Xiva xoni ishlarida ishtirok etmasliklarini, shuning uchun ham javobgarlik tortilmasligini aytishdi. Imperator ularning iltimoslariga e‘tibor bermadi va ularni Moskvaga yuborishni buyurdi. [8]

“Kichik Osiyo va Eronning otasi” deb atalgan mashhur ingliz olimi, Britaniya sharqshunosi, diplomat, ellinist, va tarixchi Ser Henry Creswicke Rawlinson (1810–1895) 1843-yil, Londonda nashr etilgan “Notes on Central Asia” asarida Rossiya Markaziy Osiyo bozorlarini to‘liq nazorat qilishni maqsad qilgani aytiladi, hamda yarmarka siyosati Rossiyaning iqtisodiy ta’sir vositasi sifatida ko‘rsatiladi. [9]

Herman Vamberi esa, Xiva, Buxoro va Qo‘qonning Rossiyadan iqtisodiy jihatdan qaram bo‘lib borayotgani ta’riflangan. Rossiya mahalliy hukmdorlarni bo‘ysundirish uchun savdo-siyosiy bosimdan faol foydalanayotganini qayd etgan. [10].

Muhammad Yusuf Bayoniy va Muhamad Rizo Ogahiy o‘z asarlarida rus savdogarlariga imtiyozlar berilishi mahalliy iqtisodiy mustaqillikka xavf sifatida baholanganlar. [11]

Byorns aytgan siyosiy-harbiy bosim boshqa tarixiy manbalarda ham to‘liq tasdiqlanadi. Rossiya iqtisodiy bosim orqali Markaziy Osiyoda o‘z ta’sirini kuchaytirib borgan

Hisobotning 8-xatbshida esa ikki davlat o‘rtasidagi diplomatic aloqalarga to‘xtaladi. Bu voqealar haqidagi xabar Xivaga etib borishi bilan, Xon Buxoro va Qo‘qon hukmdorlariga yana elchi yuborib, yordam va maslahat so‘radi. Ular yaqinda berilgan imtiyozlardan keyin aralashishga istaksiz edilar, lekin ruslarning savdogarlarga nisbatan qattiq harakatini hisobga olgan holda, Buxoro amiri ushlab qolinganlarni ozod qilish va ularning mol-mulkini qaytarish uchun muzokaralar olib borish maqsadida Imperatorga vakil yuborishga rozi bo‘ldi. Buxorodan yangi kelgan karvon shu yerda elchi hali qaytmaganligi, lekin ruslar savdogarlarni qaytarishni rad etganliklari va, aslida, ularni Sibirga jo‘natib bo‘lganliklari haqida xabar olib keldi. Bu xabar Turkistonda juda norozilik bilan qarshilandi va hozircha o‘sha mamlakat bilan Rossiya o‘rtasidagi barcha savdoni to‘xtatishga olib keladi. Hatto Qo‘qon, Buxoro va Xiva hukmdorlari ittifoq tuzib, Orenburg, Qozon, Troitsk va Irbit yo‘nalishida yoki o‘z mamlakatlarining bevosita shimolidagi joylarda ruslar va ularning mol-mulkini ushlab qolish choralarini ko‘rishlari mumkinligi aytilmoqda. Biroq, Rossiyaning Turkistondagi maqsadlariga erishish istagi meni shunga ishontirmoqdaiki, u ushbu kichik musulmon davlatlarining g‘azabini pasaytirish yo‘llarini izlaydi, ammo nizoning tabiatidan kelib chiqqan holda, bu juda qiyin bo‘ladi, chunki avval Urganch xonini tinchlantirish kerak; u Rossiyaga olib boradigan katta karvon yo‘lini nazorat qiladi, u rus savdogarlarining Buxoroga kelishining oldini oldi va shuningdek, musulmon

savdogarlarining Rossiyaga o'tishiga to'sqinlik qila oladi. Ehtimol, Xivaning o'zni Rossiya imperatorini bu ashaddiy adolatsiz choralarga undagan. Biroq, bu Forsni ham tinchlantiradi, chunki uning minglab fuqarolari Xivada qul qilingan, shuning uchun ushbu kichik davlatga qarshi qilingan har qanday harakat Tehron hukumati uchun quvonchli bo'lishi kerak; bu holda ikkalasining maqsadlari ham bir xil, Shohning hazratlari, shuningdek, cho'lga harbiy ekspeditsiya yuborishni o'ziga ma'qul ko'rmasligi mumkin va savdogarlarni ushlab qolish xonning manfaatlariga tegishli bo'lgani uchun unga ta'sir qilish vositasi bo'lishi mumkin.[12]

Bayoniy "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida xonliklarning o'zaro ittifoqlari vaqtinchalik va siyosiy vaziyatga qarab bo'lganligi, Qo'qon va Buxoro ko'pincha Xivaga yordam berishdan tiyilganligini qayd etgan. [13] Herman Vamberi esa, Markaziy Osiyo xonliklari hamisha o'z manfaatini birinchi o'ringa qo'yganligi, Xiva–Buxoro o'rtasida ko'p hollarda ishonchsizlik bo'lganligini qayd etgan.[14]

Byorns ta'riflaganidek, Xiva boshqa xonliklardan yordam ololmagan bu tarixiy manbalarda ham tasdiqlangan. Xiva xonligining Rossiya bilan mojarolari XIX asrning markaziy siyosiy voqealaridan biri bo'lib, keyinchalik Rossiyaning 1873-yil Xivani zabt etishiga olib borgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alexander Burnes. Reports and Papers Political, Geographical, & Commercial, submitted to government, by Sir Alexander Burnes, Bo. N. I.; Lieutenant Leech, Bo. E.; Doctor Lord, Bo. Ms; And Lieutenant Wood, I. N.; Employed on missions in the years 1835-36-37, in scinde, Affghanisthan, and adjacent countries. 1839. P-24.
2. Муравьев, Н. Путешествие в Хиву в 1819–1820 годах. Санкт-Петербург, 1822 год. С-124.
3. Vamberi, A. Travels in Central Asia. London, 1864. С-45.
4. Muhammad Yusuf Bayoniy. "Shajarayi Xorazmshohiy". Ga'fur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1994 y. 104 – bet

5. Alexander Burnes. Reports and Papers Political, Geographical, & Commercial, submitted to government, by Sir Alexander Burnes, Bo. N. I.; Lieutenant Leech, Bo. E.; Doctor Lord, Bo. Ms; And Lieutenant Wood, I. N.; Employed on missions in the years 1835-36-37, in scinde, Affghanisthan, and adjacent countries. 1839. P-24.
6. Смирнов Ю. Н. Оренбургская экспедиция (комиссия) и присоединение Заволжья к России в 30–40-е гг. XVIII века. Самара, 1997.
7. Ogahiy. Riyoz ud-davla, Zubdat ut-tavorix. Toshkent. Fan nashriyoti. 1994. B-132.
8. Alexander Burnes. Reports and Papers Political, Geographical, & Commercial, submitted to government, by Sir Alexander Burnes, Bo. N. I.; Lieutenant Leech, Bo. E.; Doctor Lord, Bo. Ms; And Lieutenant Wood, I. N.; Employed on missions in the years 1835-36-37, in scinde, Affghanisthan, and adjacent countries. 1839. P-25.
9. Henry Creswicke Rawlinson. "Notes on Central Asia.1843. London. P-45.
10. Vamberi, A. Travels in Central Asia. London, 1864. P-46.
11. Muhammad Yusuf Bayoniy. "Shajarayi Xorazmshohiy". Ga'fur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1994 y. 105– bet
12. Alexander Burnes. Reports and Papers Political, Geographical, & Commercial, submitted to government, by Sir Alexander Burnes, Bo. N. I.; Lieutenant Leech, Bo. E.; Doctor Lord, Bo. Ms; And Lieutenant Wood, I. N.; Employed on missions in the years 1835-36-37, in scinde, Affghanisthan, and adjacent countries. 1839. P-25.
13. Muhammad Yusuf Bayoniy. "Shajarayi Xorazmshohiy". Ga'fur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1994 y. 106– bet
14. Vamberi, A. Travels in Central Asia. London, 1864. P-47.
15. Zafarjon o'g'li, Adashaliyev Azizbek. "XIX ASRNING 60-YILLARIDA INGLIZ-RUS MUNOSABATLARIDA HERMAN VAMBERI ESKPEDITSIYASINING AHAMIYATI." *InnoRes* 1.1 (2025): 98-105.

16. Adashaliyev Azizbek Zafarjon o'g'li. «ALEKSANDR BYORNS BOSHCHILIGIDAGI INGLIZ EKSPEDITSIYASINI TASHKIL ETILISHI SABABLARI VA O'RTA OSIYOGA SAYOHATI». Журнал научных исследований и их решений, т. 4, вып. 02, апрель 2025 г., сс. 164-9, <https://inlibrary.uz/index.php/ituy/article/view/82647>.

17. Adashaliyev A.Z.. "ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI BOJXONA SIYOSATI VA UNING TASHQI SAVDO RIVOJLANISHIGA TA'SIRI" Экономика и социум, no. 10 (113)-2, 2023, pp. 15-20.